

**QORAQALPOG'ISTON
RESPUBLIKASI
VAZIRLAR KENGASHINING
FARMOYISHI**



**QARAQALPAQSTAN
RESPUBLIKASI
MINISTRLER KEÑESINIŇ
BIYLIĞI**

2023 - yil 11 - mart

46-13-0-F/23

Qoraqalpog'iston Respublikasi
Vazirlar Kengashi

Respublikada Navro'z umumxalq bayramini munosib nishonlash hamda muborak Ramazon oyini qarshi olishga tayyorgarlik ko'rish, mahallalar, aholi turar joylari, xiyobonlar, ziyoratgohlar, qabristonlar hamda bolalar maydonchalarini obodonlashtirish, "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasidagi ko'kalamzorlashtirish tadbirlarini davom ettirish, sog'lom turmush tarzi hamda sanitariya-gigienik madaniyatni targ'ib qilish, shuningdek aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamini qo'llab-quvvatlash hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 10-martdagi 111-F-son farmoyishi ijrosini ta'minlash maqsadida:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 10-martdagi 111-F-son farmoyishi ijro uchun rahbarlikka olinsin.

2. Navro'z umumxalq bayrami va muborak Ramazon oyi arafasida umumxalq xayriya hasharini tashkil etish orqali mahallalar, aholi turar joylari, xiyobonlar, ziyoratgohlar, qabristonlar va bolalar maydonchalarini obodonlashtirish maqsadida "Obod va fayzli mahalla – yurt ko'rki" shiori ostida umumxalq xayriya hashari tadbirlari 2023-yilning 11-mart sanasidan 18-mart sanasiga ko'chirilsin.

3. Mazkur farmoyishning ijrosini nazorat qilish Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o'rinbosari A.Daniyarov zimmasiga yuklansin.

**Qoraqalpog'iston
Respublikasi Vazirlar
Kengashi Raisi**



F. Ermanov